



TA'LIM-TARBIYA MASALALARIDA "SHAXSIY NAMUNA" VA UNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Soliyeva Nodiraxon Usubovna

Farg'ona viloyati Quva tumani 38-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola yosh avlodga to'g'ri tarbiya berish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, o'qituvchilar ota-onalar ta'lim tarbiya jarayonlarida foydalanishlari mumkin.

Kalit so'zlar:chiroyli xulq, odob-axloq, tarbiya, jism tarbiyasi, rux tarbiyasi, e'tiqod tarbiyasi, shukr, na'muna, qadriyat, ne'mat.

“Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot,
yo najot–yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”.

Abdulla Avloniy

Inson dunyoga kelar ekan o'zidan yaxshi nom qoldirish va o'z nasl-nasabini davom ettirish uning eng katta vazifasi hisoblanadi. Farzandni dunyoga keltirib unga namunali tarbiya berish, insoniyatga manfaat keltiradigan shaxs qilib tarbiyalash mashaqqatli ish hisoblanadi. Bunga to'g'ri yondashish bu o'zimizning aql-idrokimiz va jamiyatga bevosita bog'liq jarayondir. Darhaqiqat, farzandlarimizning biz orzu qilgandek bilimli, hunarli, el-yurtga foydasi tegadigan, oqil insonlar bo'lib yetishishi avvalo o'zimizga bog'liq. Farzand Alloh taoloning insonga bergan oliy ne'matlaridan biri bo'lib, ota-ona hayotining



davomchilari hisoblanadi. Har ne'matning o'z shukri bor, farzand ne'matining shukri unga chiroyli tarbiya berishdir. Bu haqda Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: "Ota-ona o'z farzandiga chiroyli xulqdan ko'ra afzalroq narsani berolmaydi," -deydilar. Tarbiya so'zini tor doirada tasavvur qilmaslik lozim. Ota -ona zimmasidagi burch farzandga faqat chiroyli odob-axloq o'rgatishdan iborat emas, balki uni turli xil mafkura va g'oyri insoniy yot g'oyalardan saqlash ham ota-onaning burchlaridan biri hisoblanadi. Chunki e'tiqodi sog'lom, mafkurasi to'g'ri bo'lgan farzand ota-onaga mehribon, el-yurtiga sadoqatli fidoyi inson bo'lib voyaga yetadi. Farzandini jismonan sog'lom, baquvvat qilib voyaga yetkazmog'i ham ota-ona zimmasidagi burchlardan biridir. Janob Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam: "O'g'illaringizga suvda suzishni, kamonda otishni, qizlaringizga esa tikishni o'rgatinglar," - deb farzandlarni chaqqon, sog'lom, baquvvat, ziyrak va hunarli qilib tarbiyalashga targ'ib qilganlar. Chunki sog'lom va kuchli inson har doim o'z eliga, vataniga naf keltiradi.

Farzand tarbiyasi bilan uning go'daklik davridanoq, hatto dunyo yuzini ko'rmasidan avval shug'ullanish lozim. Xalqimiz qadimdan tarbiyani ko'pning ishi deb bilganlar. Xalqimizning "Bir bolaga yetti mahalla ota", degan hikmatli so'zining zamirida olam-olam ma'no bor. Ezgulik, yaxshilik, odob-axloqni muqaddaslashtirib, har bir yigit-qizga yoshlikdan shu qoidalarga amal kilishni o'rgatib nazorat etib turganlar. Tarbiyaning eng muhim talablaridan biri-shaxsiy namuna, oila ibratidir. Ota-ona, kattalar, qariyalar, aka-ukalar, qarindosh urug'larning oiladagi mavqei muhim ahamiyatga ega. Yaxshi farzandlarni, avvalo, yaxshi oila, yaxshi ota-onalar tarbiyalaydi.

Ijodkor xalqimiz yaratgan o'zbekona qadriyatlar, rang- barang va beqiyos bo'lib, o'zbekona milliy qadriyatlarimizning har biri yaxlit bir asardir. Bugungi kun yurtimizda barkamol avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash eng muhim vazifa hisoblanadi. Milliy qadriyatlarimiz asosini ma'naviyat tashkil etadi, ma'naviyat esa tarbiya demakdir. Ma'naviyatda insonning iymoni, e'tiqodi, ahloqi, ichki dunyosi shakllanib sayqal topadi.



Insonni vatan, xalq, ota-ona, qavm-qarindoshlar oldidagi burchlarini anglashi uning yuksak ma'naviyat sohibi ekanligiga dalolat qiladi. Milliy qadriyatlarimiz bilan chambarchas bog'lanib ketgan muqaddas dinimizda ham farzand tarbiyasiga alohida e'tibor ko'rsatilgan. Salaf ulamolarimiz farzand tarbiyasini to'rt qismdan iborat ekanligini bayon qilishganlar:

1. E'tiqod tarbiyasi. Farzand tug'ilib, uning aqli shakllana boshlagan vaqtdan boshlab, to voyaga yetib mustaqil hayotga qadam qo'yguncha unga imon-e'tiqod masalalari, ota-onaga hurmat, vatanga sadoqat tuyg'ulari yoshiga mos ravishda o'rgatib boriladi.

Har bir farzand yaxshiliklarni qabul qiluvchi, oppoq qog'oz kabi sof qalb bilan dunyoga kelar ekan. Farzand qalbidagi ana shu soflikni saqlab, uni shakllantirish va turli xil g'oyri insoniy xulqlardan hamda dinimizga, e'tiqodimizga yot-begona bo'lgan turli g'oyalardan asrash ota-onalarning eng muhim vazifasidir.

2. Jism tarbiyasi. Ota-ona farzandini jismoniy sog'lom bo'lib voyaga yetishiga ham mas'ul bo'lib, bunda bolani yetarli miqdorda to'g'ri ovqatlanishi, kiyinishi, yotib-turishiga va uni jismonan baquvvat holda voyaga yetishi uchun imkoniyat yaratib berishga e'tibor qaratish lozim. Farzandning ruhan va jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishi nafaqat uning kelajagi, balki bizning kelajagimizni ta'minlash ekanligini aslo yoddan chiqarmaslik lozim. "Sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir".

Farzandlarimizga chiroyli tarbiya berib, hunar o'rgatib ruhan kuchli va e'tiqodi sog'lom holda voyaga yetkazish bilan birga ularni jismonan baquvvat qilib voyaga yetkazish ham ota-onaning burchlaridandir.

3. Fikr (aql) tarbiyasi. Bu tarbiya – tarbiyaning eng mas'uliyatli qismlaridan biri hisoblanadi. Farzandning yaxshi, komil inson bo'lib, jamiyatda o'z o'rnini topishida tarbiya bilan birgalikda ilmning xizmati beqiyosdir. Zero, chiroyli tarbiya bilan ziynatlangan ilmi inson yurtimiz ravnaqi va kelajagi hisoblanadi.



4. Axloq tarbiyasi. Yoshlarning barcha sohada yetakchi bo'lishlari uchun eng avvalo, odob-axloqli bo'lishlari lozim. Chunki odob dunyo va oxirat ne'matlariga yetkazuvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Yaxshi tarbiya – saodatli kelajakdir, yomon tarbiya esa istiqbolsiz kelajakdir. Biz farzandimizga yaxshi tarbiya berish orqali kelajagimizda hosil beradigan mevaning urug'ini yerga qadayotgandek bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A Avloniy: "Turkiy guliston yohud axloq" asari
2. Al-Buxoriy: "Hadis as-sahih" to'plami
3. Oltinko'l tuman bosh imom-xatibi: Muhammadyusuf To'raqulov ma'ruza matn.